

KORXONANING IQTISODIY SALOHIYATI VA UNING TUSAUNCHASI

*University of economics and pedagogy Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası.
assistenti .*

G'aymatova Dilafruz G'ofurjonova

Annotatsiya: *Bu maqolada korxonalarning iqtisodiy salohiyati tushunchasi va uning shakllari yoritilgan. Maqolada xorijiy va MDHning yetuk olimlar tomonidan berilgan ta'riflar o'rganilib, mamlakatimizga hos va mos jihatlari mentalitetimizdan kelib chiqqan holda qo'llash bo'yicha fikrlar keltirilgan. Insoniyat bugungi kungacha iqtisodiy taraqqiyotning uzoq yo'lini bosib o'tdi va yuqori darajada rivojlangan ishlab chiqarish, moliyaviy va mehnat resurslari salohiyatini shakllantirdi. Bu esa ko'plab dunyo mamlakatlarida aholi turmush farovonligini ko'tarish imkonini berdi.*

Annotatsiya: *В данной статье автором рассмотрено понятие экономического потенциала предприятий и его формы. Автором статьи были изучены мнения ученых экономистов согласно понятия экономического потенциала. В результате изучения автор выразил свое мнение согласно применения понятия экономического потенциала учитывая менталитет и существенные нашему государству стороны.*

Annotation: *In this article, the author considers the concept of the economic potential of enterprises and its form. The author of the article studied the opinions of scientists economists according to the concept of economic potential. As a result of the study, the author expressed his opinion according to the application of the concept of economic potential, taking into account the mentality and the parties that are essential to our state.*

Kalit so'zlar: *iqtisodiy salohiyat, mehnat unumdorligi, asosiy fondlar, aylanma mablag'lar, mehnatga layoqatli aholi, mehnat salohiyati, ishchi kuchi, korxona xodimlari, ishlab chiqarish jarayoni, ishlab chiqarish salohiyati, eksport salohiyati, bozor, yalpi ichki mahsulot.*

Ключевые слова: *экономический потенциал, производительность труда, основные фонды, оборотный капитал, трудоспособное население, трудовой потенциал, рабочая сила, работники предприятия, производственный процесс, производственный потенциал, экспортный потенциал, рынок, валовой внутренний продукт.*

Key words: *economic potential, labor productivity, fixed assets, working capital, able-bodied population, labor potential, labor force, employees of the enterprise, production process, production potential, export potential, market, gross domestic product.*

Insoniyat bugungi kungacha iqtisodiy taraqqiyotning uzoq yo'lini bosib o'tdi va yuqori darajada rivojlangan ishlab chiqarish, moliyaviy va mehnat resurslari salohiyatini shakllantirdi. Bu esa ko'plab dunyo mamlakatlarida aholi turmush farovonligini ko'tarish imkonini berdi. Biroq, ishlab chiqarish, moliyaviy va mehnat

resurslarining yig'indisi sifatida iqtisodiy salohiyat dunyo mamlakatlari kesimida ko'rilsa, uning bir tekis taqsimlanmaganligi ko'zga tashlanadi va bu mamlakatlarning turlicha ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot darajasiga erishganini ko'rsatib beradi.

Iqtisodiyot salohiyat – birinchi navbatda mamlakatda yaratilgan YaIM qiymati sifatida hammaga ma'lum, lekin uni ko'paytirish asosan sanoat ishlab chiqarishini yaratish va rivojlantirish orqali namoyon bo'ladi. So'nggi yillarda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida xizmatlar sohasning ulushi ortib bormoqda va YaIM tarkibida katta o'rin egallamoqda. Lekin, bu holat mamlakat iqtisodiyoti uchun sanoat ishlab chiqarishining ahamiyatni kamaytirmaydi.

Sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish esa odatda qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish orqali yuz beradi va u jamiyat a'zolarining iste'mol ehtiyojlarini qondirish asosida foyda olishga qaratilgan bo'ladi. Bu fikrdan shunday xulosa kelib chiqadi-ki, sanoat ishlab chiqarishi salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish istemolchilar ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga intilish bo'lib, uning holati mamlakat miqyosida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi, ya'ni texnik va texnologik baza, moliyaviy imkoniyat va ishchi kuchining malakasi hamda bilimining zamonaviylik darajasi bilan aniqlanadi.

Bugungi kunda yer yuzasida 215 dan ortiq mamlakat mavjud bo'lsa-da, ulardan atiga 35 tasi taraqqiy etgan mamlakat hisoblanadi. Qolgan 180 yaqin mamlakatning 50 tasi qoloq va 130 ga yaqini turli xil darajada taraqqiyot darajasiga erishgan mamlakatlar deb qarash qabul qilingan. Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyot darajasini taqqoslashda mutaxassislar boshqa ko'rsatkichlar bilan bir qatorda sanoat ishlab chiqarish darajasi, ya'ni texnologik jarayon omiliga ko'proq e'tibor beradilar. Texnologik jarayon nuqtai-nazaridan qaralsa, dunyo mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyot darajasidagi farq yanada kattaligi ko'zga tashlanadi. Bu farq ba'zan yillar bilan o'lchanadi va eng rivojlangan mamlakatlar bilan eng qoloq mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati o'rtasidagi farq bugungi kunda 50-100 oralig'ida deb ko'rsatilmoqda. Bu shuni anglatadiki, ayrim qoloq mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot darajasi texnologiya omili nuqtai-nazaridan solishtirganda, rivojlangan mamlakatlarning 100 yil avvalgi holatiga mos keladi. Bu holat, birinchi navbatda mamlakat hukumatining olib borayotgan sanoatlashuv hamda makroiqtisodiy siyosatining natijasi bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqarish darajasi esa sarflanayotgan investitsiyalar hajmi, ishchi kuchi salohiyati va ishsizlik darajasi hamda mehnat unumdorligi bilan to'g'ridan – to'g'ri bog'langan bo'ladi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib hulosalar qilish mumkin-ki, iqtisodiy salohiyat tushunchasiga makrodarajada yondashuv mamlakat iqtisodiyotining iqtisodiy salohiyatining asosiy o'lchovi sifatida potensial yalpi ichki mahsulot deb biladi. Lekin, iqtisodiy salohiyat garchi

mamlakat iqtisodiyotining yalpi quvvatini tashkil qilsada, uning shakllanish negizi bo'lib korxona iqtisodiyoti hisoblanadi. Shuning uchun rivojlanayotgan mamlakatlarda korxona iqtisodiyoti darajasida iqtisodiy salohiyatni shakllantirish, uni rivojlantirish va samarali foydalanish masalalari bu kategoriyani ilmiy tadqiq etish va yangi mazmun va yondashuvlar bilan boyitishni talab etadi.

АДАБИЁТЛАР:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyevning 2020 yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. —Ishonch gazetasi №15-16 (4301) 25.01.2020 y.-1-4 b
3. . Abdulkarimov I.T.va boshqalar. Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili; - T.:Iqtisodiyat va huquq dunosi, 2003 y. 87, 93b.
4. . Алексеева, Е.Ю. Организационная экономика (предприятие): Учебник для бакалавров; - М.: Дашков и К, 2016 г. 41б.
5. . Антонова, О.В. Экономика предприятия (организации, предприятия): учебник; -М.: Университетский учебник, 2019 г.- 250 с.
6. . Бабук И.М. Экономика промышленного предприятия: учебник; - М.: Инфра-М, 2018 г.- 432 с. 6. Баканов М.И. Теория анализа хозяйственной деятельности: Учебник. М.Финансы и статистика, 2011, 283 стр.